

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASH

*Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 1-boshqich talabasi*

**Ro'zmatova Bonu**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Andijon, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ayollarni huquq va erkinliklari to'g'risida so'z boradi. Hozirgi kunda dunyoda muhim masalalardan biriga aylangan bu muamo har bir davlatda hal qilinmoqda. Chunki ayollar ham o'z haq-huquqlariga ega bo'lishi kerak. Ushbu masala ko'tarilishiga juda ko'p sabablar mavjud. Masalan, ayollarga bo'layotgan zo'ravonliklar, ularni erkinliklarini cheklash, jamiyatda teng huquqqa ega emasligi adolatsizlik hisoblanadi. Shuning uchun bizning yurtimizda ham ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida chora-tadbirlar ko'rilmoqda, quyida shular haqida taklif va mulohazalar berilib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, qonun va qaror, huquq va erkinliklar, konstitutsiya, inson huquqlari, ayollar huquqlari.

**Mavzuni dolzarbligi** Bugungi kunda xotin-qizlarimizni turmushini o'tgan kunlarning o'tmish sahifalariga yozilgan va bitilgan kechmishlariga aslo solishtirib bo'lmaydi. Momolarimizni cheklangan huquqlari, siyosiy tugul oddiy o'rta maktab ta'limini olish borasidagi cheklovlar va ularni yengish uchun qanchalik darajadagi chekkan mashaqqatlari ayollarning hozirgi huquq va manfaatlariga yetishishi yo'lida debocha bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz. Nafaqat bizni mamlakatimizda balki, butun dunyoda ayollar huquqlarini himoya qilish har doim dolzarb bo'lib kelgan. Ayollar huquqlarining global muammolari dunyoning ko'plab mamlakatlarida eng muhim muammolardir. Bu sohadagi muammolar va muammolarni aks ettiruvchi bir necha asosiy jihatlarni sanab o'tsak:

1. Gender tengsizlik: Erkaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlik asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu ish haqi, ta'lim olish imkoniyati, biznes va siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlariga taalluqlidir.

2. Zo'ravonlik: Ayollarga nisbatan zo'ravonlik millionlab ayollar hayotiga ta'sir qiluvchi global muammodir. Bu oiladagi zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, odam savdosi va huquqlarning buzilishining boshqa shakllarini o'z ichiga olishi mumkin.

3. Ta'lim olish imkoniyati: Dunyoning ayrim hududlarida ayollar hali ham sifatli ta'lim olishda qiynalmoqda. Bu ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga to'siqlar yaratadi.

4. Sog'liqni saqlash: Bir qator mamlakatlarda ayollar sifatli tibbiy xizmatdan, jumladan, reproduktiv salomatlik xizmatidan foydalanish imkoniyati cheklangan. Bu ularning farovonligi uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

5. Siyosat va yetakchilikdagi ishtiroki: Taraqqiyotga qaramay, ko'plab mamlakatlarda ayollarning siyosat va yuqori rahbarlik lavozimlarida ishtirok etish darajasi hali ham yetarli emas.

6. Bolalar nikohi va bolalarga nisbatan zo'ravonlik: Ko'pgina qizlar majburiy turmushga chiqish va zo'ravonlikka duch kelishadi, bu ularning huquqlarining buzilishi va jiddiy ijtimoiy va psixologik oqibatlarga olib keladi.

7. Texnologiyadan foydalanish imkoniyati: Ayrim jamiyatlarda ayollarning axborot texnologiyalari va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan, bu esa ularning ta'lim olishi va rivojlanishi uchun qo'shimcha to'siqlar yaratishi mumkin.

Dunyo bo'ylab ko'plab guruhlar va tashkilotlar ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish, qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish va hayotning turli sohalarida xotin-qizlarning mavqeini oshirishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali ushbu muammolarni hal qilish ustida ishlamoqda. Mamlakat ayollar huquqlarini qay darajada ta'minlayotganini baholash turli jihatlariga, jumladan, qonunlar, siyosatlar, ijtimoiy-madaniy omillar va haqiqiy turmush sharoitlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, ayrim davlatlar tenglik va ayollar huquqlarini ilgari surish borasidagi sa'y-harakatlari bilan taniqlidir. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday mamlakatlarda ham muammolar mavjud bo'lishi mumkin va hech bir davlat bu sohada to'liq mukammallikka erishmagan. Jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligi juda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligi jamoada, guruhda, norasmiy birlashmada muloqot qilish va harakat qilish, boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lish, tengdoshlari, oilaning katta va kichik a'zolari, mahallalar oldidagi muayyn majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda bajarishdari, o'zini va o'z g'alarini rivojlantirish va faollashtirishga qaratilgan ongli hamda tizimli faoliyatidir. Shu jumladan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga e'tibor qaratsak. Mamlakatimizda ham gender statistikasini yuritish bo'yicha Statistika agentligi vakolatli organ bo'lib, agentlikda gender statistikasini yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo'yicha alohida bo'linma tashkil etilgan. Agentlik tomonidan yuritiladigan gender.stat.uz saytining barcha bo'limlarida bugungi kunda 180 dan ziyod gender statistikasiga oid ko'rsatkichlar 3 ta tilda, 5 xil formatda joylashtirib borilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, yildan yilga gender tenglikni ta'minlashga va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan islohotlar rivojlanib bormoqda. So'nggi yillarda Gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni e'tirof etadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi **“Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”**gi

**PQ-4235-on qarori**, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 192-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 402-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 4-yanvardagi 4-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-noyabrdagi "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 919-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 285-son qarorini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasining 25-maqsadida Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish. Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosaasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish nazarda tutilgan. Milliy darajada ayollar maqomini oshirish va ularning iqtisodiy huquqlarini ham mustahkamlash bo'yicha dasturlar va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Gender muammolarini hal qilishda respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat va ilmiy tashkilotlari faoliyatining faollashishi hamda bir-biri bilan uyg'unlikda faoliyat yuritishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta buning uchun moliyaviy qo'llab – quvvatlash masalasi birinchi o'ringa chiqadi.

Ushbu qabul qilingan qonun va qarorlar albatta mamlakatimizdagi xotin va qizlarning huquq va majburiyatlarini kafolatlab, shu bilan birgalikda ko'pgina huquqbuzarliklarni oldini olishda ham samarali xizmat qiladi. Bundan tashqari xotin-qizlar uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish ularning ixtiyorida bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-on qarori,
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 4-yanvardagi 4-son qarori,
3. <https://lex.uz/docs/-2690835>
4. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu>
5. <https://uzmarkaz.uz/news/>